

**BADIIY MATNLAR BILAN ISHLASHDA TASK-BASED LANGUAGE  
TEACHING METODINING LINGVISTIK VA KOMMUNIKATIV  
KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDAGI IMKONIYATLAR**

**Fayziyeva Gulchiroy**

*O‘zMu tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada badiiy matnlar bilan ishlash jarayonida Task-Based Language Teaching (TBLT) metodidan foydalanishning lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari yoritiladi. TBLT yondashuvi badiiy matnni faqat mazmuniy jihatdan o‘zlashtirish vositasi sifatida emas, balki talabalarning til birliklarini kontekstual anglash, matn mazmunini tahlil qilish, o‘z fikrini asoslash va kommunikativ vaziyatlarda ingliz tilidan faol foydalanishini ta’minlovchi pedagogik vosita sifatida talqin qilinadi. Maqolada badiiy matn asosida tashkil etiladigan topshiriqlarning lingvistik bilimlarni amaliy qo‘llash, lug‘at boyligini kengaytirish, grammatik va stilistik birliklarni kontekstda o‘zlashtirish, shuningdek, og‘zaki va yozma nutq faoliyatini faollashtirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. TBLTning pre-task, task cycle va language focus bosqichlari asosida badiiy matn bilan ishlashning metodik imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, topshiriqqa yo‘naltirilgan faoliyat talabalarning hamkorlikda ishlash, fikr almashish, muammoli vaziyatlarni hal qilish va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslanadi. Tadqiqot natijalari TBLT metodidan badiiy matnlarni o‘qitishda maqsadli foydalanish talabalarning lingvistik bilimlarini kommunikativ faoliyat bilan integratsiyalash imkonini berishini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** Task-Based Language Teaching, lingvistik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, til topshiriqlari, matn tahlili, ingliz tili ta’limi, nutq faoliyati

**Аннотация:** В статье рассматриваются дидактические возможности использования метода Task-Based Language Teaching (TBLT) при работе с художественными текстами в развитии лингвистической и коммуникативной компетенций обучающихся. Подход TBLT рассматривается не только как средство освоения содержания художественного текста, но и как эффективный педагогический инструмент для понимания языковых единиц в контексте, анализа текста, аргументации собственной позиции и активного использования английского языка в коммуникативных ситуациях. Анализируется значение заданий, основанных на художественных текстах, в практическом применении языковых знаний, расширении словарного запаса, усвоении грамматических и стилистических единиц в контексте, а также активизации устной и письменной речевой деятельности. Раскрываются методические возможности организации работы с художественным текстом на основе этапов TBLT: pre-task, task cycle и language focus. Обосновывается, что

выполнение заданий, ориентированных на решение коммуникативных и содержательных задач, способствует развитию навыков сотрудничества, обмена мнениями, решения проблемных ситуаций и самостоятельного формулирования выводов. Результаты исследования показывают, что целенаправленное применение TBLT при обучении художественным текстам позволяет интегрировать лингвистические знания обучающихся с их реальной коммуникативной деятельностью.

**Ключевые слова:** Task-Based Language Teaching, лингвистическая компетенция, коммуникативная компетенция, языковые задания, анализ текста, обучение английскому языку, речевая деятельность.

**Abstract:** This article examines the didactic potential of Task-Based Language Teaching (TBLT) in developing learners' linguistic and communicative competences through work with literary texts. TBLT is considered not merely as a means of comprehending the content of a literary text, but as an effective pedagogical approach that enables learners to understand language units in context, analyse textual meaning, justify their opinions, and use English actively in communicative situations. The article analyses the role of literary-text-based tasks in applying linguistic knowledge in practice, expanding vocabulary, acquiring grammatical and stylistic units in context, and enhancing oral and written language activities. Particular attention is given to the methodological potential of organising literary text activities through the main stages of TBLT: pre-task, task cycle, and language focus. The article also substantiates that task-oriented activities contribute to the development of learners' collaborative skills, exchange of ideas, problem-solving abilities, and capacity to formulate independent conclusions. The findings indicate that purposeful application of TBLT in teaching literary texts facilitates the integration of linguistic knowledge with meaningful communicative activity and creates opportunities for learners to use English in context-based, purposeful tasks. Thus, TBLT can serve as an effective methodological framework for combining literary text analysis with the development of practical language and communication skills.

**Keywords:** Task-Based Language Teaching, linguistic competence, communicative competence, language tasks, text analysis, English language teaching, language activities.

## KIRISH

Bugungi kunda xorijiy til ta'limida o'quvchining faqat grammatik qoidalarni bilishi yoki lug'aviy birliklarni yod olishi yetarli natija sifatida qaralmaydi. Tilni real kommunikativ vaziyatlarda mustaqil va maqsadga muvofiq qo'llash, mazmunni anglash, fikrni izchil ifodalash hamda turli nutqiy vazifalarni bajarish qobiliyati xorijiy tilni egallashning muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, til ta'limida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlarning ahamiyati ortib

bormoqda. Ana shunday yondashuvlardan biri Task-Based Language Teaching (TBLT) bo‘lib, unda til o‘rganish jarayoni muayyan kommunikativ natijaga yo‘naltirilgan topshiriqlarni bajarish orqali tashkil etiladi. TBLTning muhim jihati shundaki, til materiali alohida va kontekstdan uzilgan birlik sifatida emas, balki ma’lum kommunikativ maqsadni amalga oshirish vositasi sifatida o‘zlashtiriladi. Bu xususiyat badiiy matnlar bilan ishlash jarayonida ayniqsa muhimdir. Chunki badiiy matn mazmun, til, uslub, obraz, muallif pozitsiyasi va kommunikativ maqsadning o‘zaro uyg‘unligidan tashkil topgan murakkab lingvistik birlikdir. Matn asosida tashkil etilgan topshiriqlar talabani nafaqat matnni tushunishi, balki undagi til birliklarini kontekstual jihatdan tahlil qilishi, o‘z fikrini asoslab berishi va boshqa ishtirokchilar bilan mazmunli muloqotga kirishishini ta’minlaydi. Shu sababli badiiy matnlar asosida TBLT metodidan foydalanish lingvistik bilimlarni amaliy nutqiy faoliyat bilan bog‘lash, kommunikativ vazifalarni bajarish jarayonida til birliklarini faol o‘zlashtirish hamda talabani mustaqil fikrlashini rag‘batlantirish uchun metodik imkoniyat yaratadi.

#### Metodlar

Mazkur tadqiqotda badiiy matnlar bilan ishlash jarayonida Task-Based Language Teaching metodining lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan nazariy-metodik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini kommunikativ yondashuv, faoliyatga asoslangan ta’lim va topshiriqqa yo‘naltirilgan til o‘qitish tamoyillari tashkil etdi. TBLT doirasida topshiriq oddiy mashqdan farqli ravishda muayyan kommunikativ maqsadga ega bo‘lgan faoliyat sifatida qaraladi. Bunda o‘quvchi tayyor til birliklarini takrorlash bilan cheklanmaydi, balki mavjud lingvistik resurslardan foydalanib, ma’lum natijaga erishishga harakat qiladi. Badiiy matn ushbu jarayon uchun mazmuniy va lingvistik asos vazifasini bajaradi. Badiiy matn asosidagi topshiriqlarni tashkil etishda uch bosqichli modeldan foydalanish mumkin: pre-task, task cycle va language focus. Pre-task bosqichida talabalar matn mavzusi, muhim leksik birliklar va mazmuniy jihatlar bilan tanishtiriladi. Task cycle bosqichida ular matn asosida individual yoki hamkorlikdagi topshiriqlarni bajaradilar. Language focus bosqichida esa topshiriqni bajarish jarayonida qo‘llangan til vositalari tahlil qilinadi va ularning funksional xususiyatlariga e’tibor qaratiladi. Tadqiqotda badiiy matn asosida quyidagi topshiriq turlarining metodik imkoniyatlari ko‘rib chiqildi:

-information-gap tasks – matnning turli qismlaridagi axborotni birlashtirish orqali umumiy mazmunni aniqlash;

- opinion-gap tasks – qahramon xatti-harakatlari yoki muallif pozitsiyasi yuzasidan shaxsiy fikr bildirish;

- reasoning-gap tasks – matndagi voqealar va qahramonlar harakatining sabablarini izohlash;

- problem-solving tasks – matndagi muammoli vaziyatga yechim taklif qilish;

- role-based tasks – badiiy obrazlar nomidan fikr bildirish yoki dialog yaratish;

### Natijalar

Tahlil natijalari badiiy matnlar asosida tashkil etilgan TBLT topshiriqlari lingvistik bilimlarning kontekstual o‘zlashtirilishiga sezilarli metodik imkoniyat yaratishini ko‘rsatadi. An’anaviy yondashuvda yangi so‘z yoki grammatik birlik ko‘pincha alohida mashq sifatida o‘rganilsa, topshiriqqa asoslangan faoliyatda ushbu birlik real mazmunli vazifa doirasida qo‘llanadi. Natijada til materialini nazariy bilimdan amaliy foydalanish bosqichiga o‘tadi.

Birinchidan, TBLT badiiy matndagi leksik birliklarni kontekst asosida o‘zlashtirish imkonini beradi. Talaba yangi so‘zning lug‘aviy ma‘nosini aniqlash bilan cheklanmay, uning matndagi ma‘no yukini, boshqa birliklar bilan semantik aloqasini va kommunikativ vazifasini tahlil qiladi.

Ikkinchidan, metod grammatik kompetensiyani kontekstual rivojlantirish uchun imkon yaratadi. Badiiy matndagi grammatik shakllar tayyor qoida sifatida emas, balki muallifning muayyan mazmunni ifodalash vositasi sifatida o‘rganiladi.

Uchinchidan, TBLT o‘qib tushunish va nutqiy faoliyat o‘rtasidagi integratsiyani ta‘minlaydi. Badiiy matnni o‘qish yakuniy faoliyat emas, balki keyingi kommunikativ topshiriq uchun boshlang‘ich manbaga aylanadi.

To‘rtinchidan, badiiy matn asosidagi topshiriqlar og‘zaki kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi. Munozara, rolga kirish, muammoli vaziyatni hal qilish, obraz nomidan fikr bildirish kabi faoliyatlar talabani spontan nutq yaratishga undaydi.

### Muhokama

Olingan natijalar badiiy matnlarni TBLT asosida o‘qitish tilning formal va funksional jihatlarini birlashtirish imkonini berishini ko‘rsatadi. Bunda badiiy matn faqat o‘qib tushunish uchun beriladigan material sifatida emas, balki turli kommunikativ vazifalarni yuzaga keltiruvchi didaktik resurs sifatida namoyon bo‘ladi. TBLTning asosiy metodik afzalliklaridan biri til shakli va kommunikativ mazmun o‘rtasidagi tabiiy bog‘liqlikni ta‘minlashidir. Talaba ma‘lum grammatik yoki leksik birlikni shunchaki “to‘g‘ri javob” sifatida emas, balki o‘z fikrini ifodalash uchun zarur vosita sifatida qo‘llaydi. Shu jihatdan topshiriqning kommunikativ maqsadi til materialining o‘zlashtirilishiga turtki beradi. Badiiy matnlarning o‘ziga xosligi esa ushbu jarayonni yanada mazmunli qiladi. Chunki adabiy matnda bir xil til birligi turli kontekstlarda turlicha pragmatik va uslubiy ma‘no kasb etishi mumkin. Talaba ushbu birliklarni kontekstual tahlil qilish orqali tilning faqat grammatik tuzilishini emas, balki uning ma‘no va kommunikativ vazifasini ham anglay boshlaydi. Umuman olganda, badiiy matn va TBLTning integratsiyasi “matn - topshiriq - kommunikativ faoliyat - tilga e‘tibor - yakuniy nutqiy mahsulot” ketma-ketligi asosida tashkil etilganda samarali metodik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday yondashuv tilni o‘rganishni faqat bilimlarni egallash jarayonidan kommunikativ faoliyatni amalga oshirish jarayoniga aylantiradi.

### Xulosa

Badiiy matnlar bilan ishlashda Task-Based Language Teaching metodidan foydalanish lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarni o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirish uchun muhim metodik imkoniyatlarga ega. TBLT asosida tashkil etilgan topshiriqlar orqali leksik va grammatik birliklar kontekstda o‘zlashtiriladi, o‘qib tushunilgan badiiy mazmun esa og‘zaki va yozma kommunikativ faoliyatga aylantiriladi. Shunday qilib, TBLT va badiiy matnning integratsiyasi xorijiy til ta’limida lingvistik bilim - kommunikativ qo‘llanish - mustaqil nutqiy mahsulot tamoyili asosida tashkil etilishi mumkin. Bu esa badiiy matnlarni til o‘rgatishning mazmuniy manbai sifatida emas, balki kommunikativ faoliyatni tashkil etuvchi metodik vosita sifatida qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ellis, R., Skehan, P., Li, S., Shintani, N., & Lambert, C. (2019). Task-Based Language Teaching: Theory and Practice. Cambridge University Press.
2. Nunan, D. (2004). Task-Based Language Teaching. Cambridge University Press.
3. Jackson, D. O. (2022). Task-Based Language Teaching. Cambridge University Press.
4. Ahmadian, M. J., & Long, M. H. (Eds.). (2021). The Cambridge Handbook of Task-Based Language Teaching. Cambridge University Press.
5. Van den Branden, K. (2016). The role of teachers in task-based language education. *Annual Review of Applied Linguistics*, 36, 164–181.
6. East, M. (2017). Research into practice: The task-based approach to instructed second language acquisition. *Language Teaching*, 50(4), 507–522.
7. Batstone, R. (2012). Language form, task-based language teaching, and the classroom context. *ELT Journal*, 66(4), 459–467.
8. Ellis, R. (2009). Task-based language teaching: Sorting out the misunderstandings. *International Journal of Applied Linguistics*, 19(3), 221–246.